

1.2. TADQIQOTCHI QANDAY XUSUSIYATLARGA EGA BO‘LISHI KERAK?

Quyida tadqiqotchiga xos muhim xususiyatlar keltirilgan.

Tadqiqotchiga xos muhim xususiyatlar

MEN:

- **qiziquvchanman.** Juda ko‘p ilmiy savollar beraman va ularga javob izlayman;
- **qat’iyatliman.** Ishonch va qat’iylilik bilan qaror qabul qilaman. Ba’zan qiyinchilikka uchrasam ham, osonlikcha taslim bo‘lmayman;
- **erkin fikrlayman.** Muammoni hal etishning ko‘plab usullari mavjud, shuning uchun boshqalarning fikriga quloq solaman. Noto‘g‘ri fikr yuritayotgan bo‘lsam, uni o‘zgartirishga tayyorman va to‘g‘ri xulosa chiqarishga intilaman;
- **hamkorlik qilishga tayyorman.** Jamoadoshlarim bilan hamkorlikda faoliyat yurita olaman;
- **xolis (obyektiv) fikrlayman.** Men faqat o‘zim uchun ma’qul ma’lumotni ishonchli yoki to‘g‘ri deb hisoblamayman. Tadqiqot natijalarini xolis qayd etaman, ularni soxtalashtirmayman. Tadqiqot xulosalarini asoslash uchun dalillar izlayman;
- **skeptikman,** ya’ni barcha ma’lumotlarni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmayman, “Ishon, ammo shubha qil” o‘gitiga amal qilaman;
- **kamtarinman.** Muvaffaqiyatga erishganimda g‘ururlanib ketmayman, ba’zan xatoga yo‘l qo‘ysam, uni tan olishga va tuzatishga tayyorman;
- **halolman.** O‘zim istagan natijaga erishish yo‘lida firibgarlik va nomardlik qilmayman;
- **mas’uliyatliman.** Tabiatdan oqilona foydalanaman, atrof-muhitni ifloslantirmayman, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymayman.

1.6-rasm. Tadqiqotchiga xos muhim xususiyatlar ro‘yxati.

Har bir yosh tadqiqotchi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash uchun yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘lishi muhim.

Siz ro‘yxatdagi qaysi xususiyatlarga egasiz?

Tadqiqotchilar qiziquvchan insonlar bo‘lib, tabiat sirlarini o‘rganish uchun doim izlanadilar, muammoli savollarga javob topadilar va muammoni hal qilish uchun o‘z g‘oyalarini taklif etadilar. Taklif etilgan g‘oyalarning ishonchlilik yuzasidan dalillar to‘plash maqsadida kuzatish olib boradilar va tajriba o‘tkazadilar. Tadqiqotchilar qat’iyatli insonlardir, natijaga erishish yo‘lidagi har qanday qiyinchilikni yengib o‘tadilar, tajribalardagi kichik muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaydilar va izlanishda davom etadilar. Ular erkin fikrlovchi insonlardir, muammoni hal etishning ko‘plab usullari mavjudligini nazarda tutgan holda to‘g‘ri xulosa chiqaradilar.

Ayting-chi, nima uchun tadqiqotchilar hamkorlikda ishlash va obyektiv fikr yuritishlari muhim?



Asosiy jihatlar

- Ilm-fanni o‘rganish va amalda qo‘llash uchun qiziquvchanlik, qat’iyatlilik, erkin fikrlash, hamkorlikda ishlash, obyektiv fikrlash, skeptiklik, kamtarinlik, halollik va mas’uliyatlilik kabi ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lish zarur.



Topshiriqni bajaring

Mirzakamol Ayubov O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi rivojiga katta hissa qo‘shgan biolog olimdir. U erta gullaydigan, hosili tez yetiladigan va sifatli tola beradigan g‘o‘za navini yaratgan.

O‘zbekistonda g‘o‘za ko‘saklari janubiy mintaqalarga nisbatan kech ochilgani sababli yig‘im-terim mavsumi kech kuzgacha davom etar edi. “Bizga ertapishar g‘o‘za navlari kerak”, deya fikrlagan yosh Mirzakamol Ayubov o‘quvchilik davridayoq biologiyaning yangi yo‘nalishiga qiziq boshladi. U o‘simliklar haqida ustozlariga juda ko‘p savollar berar edi.

O‘simliklarning hayotiy jarayonlari haqidagi savollariga javob izlashda ko‘plab mutaxassislar fikrini o‘rgandi. Olib borgan tadqiqotlari natijasi yuzasidan o‘z fikrini ham ifoda eta oldi.

Mirzakamol Ayubov uzoq yillik tadqiqotlari asosida g‘o‘zaning nasldan naslga beriladigan ayrim xususiyatlarini o‘zgartirishga erishdi va uning foydali xususiyatlarga ega yangi navini yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Ayting-chi, olim g‘o‘za navini yaratishda muvaffaqiyatga erishish uchun tadqiqotchiga xos qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan? Javobingizni kichik guruhda muhokama qiling, so‘ng sinfga taqdim eting.



1.7-rasm. Mirzakamol Ayubov tadqiqot olib bormoqda.